

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

IYUL/7-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
MOSCOW • RUSSIA



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

MILLIY GVARDIYA TIZIMIDA HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASH TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI	10
Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li FOND BOZORLARIGA XORIJIY KAPITALNI JALB QILISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI	17
Yusupova Jamila Karamatdinovna AXBOROT KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINING TASHKLIY-HUQUQIY VA ILMIY NAZARIY MASALALARI	21
Rajaboyev Shahboz Shodi o'g'li PUL MABLAG'LARI HISOBINI MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O'TKAZISHNING DOLZARB MASALALARI	26
Eshonqulov Akmal Qudratovich XORAZM VILOYATINING IJOBIY IMIJINI OSHIRISHDA HUDUDIIY MARKETING STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	34
Ibadullayev Dilshad Ibragimovich OROL BO'YI MINTAQASIDA QISHLOQ XO'JALIGI VA TURIZMNI YASHIL MOLIVALASHTIRISH VA INVESTITSIYA MEXANIZMLARI: BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	40
Akramova Feruza ATMOSFERA HAVOSI MONITORINGIDA IOT SENSORLARI O'LCHASH NATIJALARINING METROLOGIK ISHONCHLILIGINI BAHOLASH VA OSHIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	52
Sobirov Anvarjon, Melibayev Maxmudjan BANK VA KREDIT MUASSASALARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TREND MODELLARI YORDAMIDA TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASH USULLARI	59
Nazarov Elbek PHYSALIS ALKEKENGII O'SIMLIGIDAN FLAVONOIDLARNI AJRATIB OLISHNING BIOTEXNOLOGIK USULLARI VA JARAYON PARAMETRLARINI OPTIMALLASHTIRISH	66
Xidirova Saboxat Baxrillayevna ЧИСЛЕННАЯ ОЦЕНКА РАЗВИТИЯ ЗОН КОНЦЕНТРАЦИИ НАПРЯЖЕНИЙ В МАССИВЕ ГОРНЫХ ПОРОД ПРИ ВЛИЯНИИ ПРОЦЕССОВ ДОБЫЧИ В УСЛОВИЯХ РУДНИКА «КЫЗЫЛ-АЛМА»	70
Салямова Клара, Меликулов Абдусаттар, Уралбаев Абдукахар, Бакиров Гайрат, Зухритдинов Давронбек XUSUSIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI, IT MUTAXASSISLARINING YETISHMASLIGI VA ISHSIZLIKNING TA'LIM SIFATI HAMDA BARQARORLIGIGA TA'SIRI: ILG'OR XORIY TAJIRIBASI VA UNING O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA TATBIQ ETILISHI	77
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW	82
Normamatov A. A. IPAKCHILIK KLASSTERLARI UCHUN INVESTITSION BOSHQARUV MODELINI ASOSLASH	87
Elboyeva Shaxzoda Olimovna KICHIK VA O'RTA BIZNES SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK USULLARDA TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI	94
Nazarov Nazar G'ulom o'g'li OLIIY TA'LIM MUASSASALARI BOSHQARUV FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI	101
Usmanov Sarvar Nigmatovich	



РАЗРАБОТКА АДАПТИВНОГО МНОГОЗОНАЛЬНОГО АЛГОРИТМА УПРАВЛЕНИЯ FUZZY-PID ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ РАВНОМЕРНОГО РАСПРЕДЕЛЕНИЯ ВЛАЖНОСТИ В ПРОЦЕССЕ УВЛАЖНЕНИЯ ЗЕРНА.....	107
Камариддинов Шохрух Акмал угли	
SANOAT KLASSTERLARIDA "SANOAT 4.0" TECHNOLOGIYALARINI JORIY ETISH VA HAMKORLIK MODELLARI	113
Mamadaliyev Anazxon Ziyodillayevich	
SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW	119
Normamatov A. A.	
YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....	124
Xudoyberdiyev Norbek Komiljon o'g'li	
HUDUDIIY TURIZMDA XALQARO ESG MEZONLARINI MILLIY SHAROITGA MOSLASHTIRISH YO'NALISHLARI	128
Maxmudova Nodira Uktamovna	
EVALUATION OF TECHNOLOGICAL LOSSES OF HYDROCARBONS OF LIGHT FRACTIONS IN THE PROCESSES OF COLLECTION AND PRIMARY TREATMENT AT THE MUBARAK FIELDS OF OGPD.....	134
Norqulov Shohbozbek Samandar ugli	
АНАЛИЗ СИСТЕМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В БАНКОВСКОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА.....	140
Жумадуллаева Дурдона Шухрат кизи	
XUSUSIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI TA'LIMNING SIFAT VA USTUVORLIGIGA TA'SIRI VA UNI TA'MINLASH YO'LLARI	145
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI.....	150
Kilichov Nazar Bafoyevich	
HUDUDLARDA TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING AHOLI DAROMADLARI VA BANDLIGIGA TA'SIRINING TAHLILI	157
Abdurayimov O'ktam Abdug'ani o'g'li	
GAZNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA BARQAROR RIVOJLANISH HOLATINING IQTISODIY TAHLILI VA BAHOLASH	164
Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol qizi	
COMPETITION IN THE INFORMATION MARKET: MONOPOLY TRENDS AND THE DIGITAL PLATFORM ECONOMY.....	169
Mo'ydinjonova Durdonaxon, Ismanov Ibrohim	
BOZOR INFRATUZILMASINING IQTISODIY MAZMUNI VA KICHIK BIZNES RIVOJIDAGI AHAMIYATI	174
Ganiyev Botir Baxtiyorovich	
MAGNIY VA KALSIY ELEMENTLARINI O'RGATISHDA O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	178
Esnazarov Abdiganij Jamalatdinovich	
DATA-DRIVEN STRATEGIK MENEJMENT: MA'LUMOTLARGA ASOSLANGAN BOSHQARUVNING ZAMONAVIY KORXONALAR RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI	184
Baymuradov Shoxrux, Dilmurodov Komiljon	
YASHIL BUXGALTERIYA (GREEN ACCOUNTING) VA ESG HISOBOTLARI: RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR RIVOJLANISHNING STRATEGIK VOSITALARI	190
Nematullayev Hamidullo, Bo'stonova Nilufar	
АНАЛИЗ ФАКТОРОВ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ	196
Нуралиева Мукаддас Мамуровна	



AGROSANOAT MAJMUASIDA INVESTISIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH, OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH VA MUSTAHKAMLASH MASALALARI	201
Xakimov Rashid	
TADBIRKORLIKDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIY SAMARALARI	206
Salohiddinov Zuhridin Nuriddinjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH HOLATINI TAHLIL QILISH	212
Achilova Firuza, Zohidov Jamshid	
NAMANGAN VILOYATINING BOSHQA HUDUDLAR BILAN TOVAR VA XIZMATLAR AYLANMASI HAMDA IQTISODIY ALOQALARINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	217
Sattarov R.A.	
ОПТИМАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ	222
Hurmurodov Kamoliddin Pirmamatovich	
OPTIK ABONENT KIRISH TARMOG'INING XIZMATLARI SAMARADORLIGI	230
Uskenbayeva Dilfuza Shuxrat qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLARNI EKONOMETRIK MODELLARINI TUZISH VA PROGNOZLASH	235
Siroj Zarina Rustambekovna	
QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA AGROKLASTERLARNING O'RNI VA AHAMIYATI	242
Berdiyev Abdumalik Hakimovich	
HUNARMANDCHILIK KLASSTERLARI BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA: TURKIYA, MAROKASH VA FRANSIYA MODELLARINING QIYOSIY TAHLILI	249
Yaxshiliqov Sardor Rustam o'g'li	
BANK TIZIMIDA LIKVIDLILIK VA KAPITAL YETARLILIGI RISKLARINI BOSHQARISH MASALALARI ...	255
Qurbonov Ilhom Jumaqulovich	
O'ZBEKISTON QISHLOQ HUDUDLARIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL OMILLARI	258
Saidakbarova Ziyoda Doniyor qizi	
BIOLOGIK AKTIVLARNI HAQQONIY QIYMATDA BAHOLASHNING KO'P OMILLI MODEL ...	266
Akhmetova Salima Seytovna	
OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SALOHİYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY - USLUBIY JIHLTLARI	272
Gulmatov Sunnatillo Nurillayevich	
YASHIL INVESTITSİYALAR MINTAQQA IQTISODIYOTINI BARQAROR DIVERSIFIKATSIYALASH VOSITASI SIFATIDA	281
To'xtayev Maqsud Mansurovich	
TIJORAT BANKLARI O'RTASIDAGI RAQOBAT DARAJASINING STATISTIK VA EKONOMETRIK BAHOSI: RAQOBAT VA MOLİYAVIY BARQARORLIK O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK	287
Qulmetov Mansurbek Ro'zmatovich	
O'ZBEKISTONDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I MA'MURIYATCHILIGINI RIVOJLANISH QONUNIYATLARI VA UNDAGI TIZIMLI MUAMMOLAR TAHLILI	294
Turdaliyev Eldor Sho'xratjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA DAROMAD MANBALARI INDEKSI VA UNING RENTABELLIGIGA TA'SIRI	300
Ahmedov Komron Muhammad-Alievich	
KORPORATIV BOSHQARUV MEXANIZMLARINING ISHLASH TAMOIYILLARI VA ULARNI QURILISH KORXONALARI AMALIYOTIGA JORIY ETISH MASALALARI	308
G'iyosov Ilxom Karimovich	
ECONOMIC STRUCTURE AND DEVELOPMENT PRIORITIES FOR STRENGTHENING INTERREGIONAL ECONOMIC COOPERATION: EVIDENCE FROM NAMANGAN REGION	316
Sattarov R.A.	



UY-JOY BOZORIDA BIRLAMCHI VA IKKILAMCHI SEGMENTLAR O'RTASIDAGI NARX TAFOVUTLARI VA ULARNI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLARNING IQTISODIY TAHLILI	322
Sadikova Dildora Abdulla qizi	
TABIY RESURLAR SAMARADORLIGI VA INSON KAPITALI INTEGRATSIYASINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: O'ZBEKISTON HUDUDLARI MISOLIDA	329
Yusubboyeva Dinora Qudrat qizi	
CHAKANA SAVDODA MAHSULOT TALABINI BASHORATLASH USULLARI	336
Mamatov Narzullo, Baxtiyorova Mohiruy	
SOLIQ AUDITIDAGI XAVF-XATARLARNI TAHLIL QILISH (RISK-ANALIZ) TIZIMI VA BUXGALTERNING HIMOYA TAKTIKASI	343
Nematullayev Hamidullo, Bo'stonova Nilufar	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM XIZMATLARI SIFATINING NAZARIY ASOSLARI	347
Raxmanov Raxmanbergan Abdullaevich	
MA'LUMOTLARNI MOLIVAVIY HISOBOTDA TAQDIM ETISHNING XORIJ TAJRIBASI.....	351
Kozimjonov Abrorbek	



MA'LUMOTLARNI MOLIYAVIY HISOBOTDA TAQDIM ETISHNING XORIJ TAJRIBASI

Kozimjonov Abrorbek

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
 “Buxgalteriya hisobi” kafedrası dotsenti, PhD
 ORCID: 0000-0001-5217-6559
 Email: a.kozimjonov@tsue.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy hisobotlarning va ushbu hisobotlarda ma'lumotlarni taqdim etish hamda yoritib berishning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Xalqaro darajada qabul qilingan “Moliyaviy hisobotda ma'lumotlarni taqdim etish va yoritib berish” nomli 18-son Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti (MHXS)ning mazmun va mohiyati muallif tomonidan ilmiy yondashuv asosida tahlil qilingan. Shuningdek, moliyaviy hisobotda ma'lumotlarni taqdim etish va yoritib berishni takomillashtirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajriba o'rganilib, ilmiy va amaliy jihatdan muallif tomonidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy hisobot, MHXS, Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (BHXS), ilova, izoh, daromad, xarajat, foyda va zarar.

Abstract: This article reveals the specific characteristics of the financial statements presented by business entities, as well as the presentation and disclosure of information within those statements. The content and essence of International Financial Reporting Standard (IFRS) 18, *Presentation and Disclosure in Financial Statements*, adopted at the international level, are analyzed by the author using a scientific approach. In addition, advanced international practices related to improving the presentation and disclosure of information in financial statements are examined, and scientifically grounded practical proposals and recommendations are developed by the author.

Keywords: financial statements, IFRS, International Accounting Standards (IAS), appendix, notes, income, expenses, profit and loss.

Аннотация: В данной статье раскрываются особенности финансовой отчётности, представляемой хозяйствующими субъектами, а также специфика представления и раскрытия информации в данной отчётности. На основе научного подхода автором проанализированы содержание и сущность Международного стандарта финансовой отчётности (МСФО) 18 «Представление и раскрытие информации в финансовой отчётности». Кроме того, изучен передовой зарубежный опыт совершенствования представления и раскрытия информации в финансовой отчётности, а также разработаны научно обоснованные практические предложения и рекомендации автора.

Ключевые слова: финансовая отчётность, МСФО, Международные стандарты бухгалтерского учёта (МСБУ), приложение, примечания, доходы, расходы, прибыль и убытки.

KIRISH

Mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini takomillashtirish va amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan “O'zbekiston – 2030” strategiyasi asosida 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko'rsatkichlari belgilab berilgan [1]. “O'zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan va amalga oshirilishi davom etayotgan, o'z ahamiyatini yo'qotmagan barcha maqsadlarga erishish hamda dolzarb vazifalarni bajarish bugungi kunda hal qilinishi zarur bo'lgan masaladir.

Ushbu strategiyada iqtisodiyotning eng tez o'sib borayotgan yo'nalishlarida amaliy tadqiqotlarni kuchaytirish, “korxona – oliygoh – ilmiy tashkilot” klaster tizimini joriy etish, iqtisodiyotda transformatsiya va institutsional islohotlarni izchil davom ettirish, mamlakatda qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta'minlash hamda muvozanatlashgan pul-kredit siyosatini amalga oshirish, monopol sohalarni bozor tamoyillariga izchil o'tkazish, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish, tadbirkorlarga erkin faoliyat yuritishi uchun eng qulay sharoitlar yaratish kabi ustuvor vazifalar mavjud.

“O'zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida qabul qilingan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham investitsiyalardan samarali foydalanish hamda eksport hajmlarini oshirish bo'yicha, “pastdan yuqoriga” tamoyili asosida, yangi tizimni yo'lga qo'yish, 2026-yilgacha xorijiy va

mahalliy investitsiyalarni jalb etish strategiyasini amalga oshirish, davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo'jaligi va boshqa sohalarga 14 milliard AQSH dollariga teng investitsiya jalb etish vazifalari ham qo'yilgan [2].

Yuqorida keltirilgan vazifalarni amalga oshirishda xo'jalik yurituvchi subyektlarda zamonaviy boshqaruv tizimini, xususan, xalqaro darajadagi talablarga javob beradigan buxgalteriya hisobini tashkil etish zarur. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda xalqaro talablarga javob beradigan buxgalteriya hisobini tashkil etish orqali mamlakatda investitsiyaviy jozibadorlikning ortishiga erishiladi. Chunki investorlarni doimo xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holati va moliyaviy natijasi juda ham qiziqtiradi. Buxgalteriya hisobida xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holati va moliyaviy natijasini ko'rsatib beruvchi ishonchli axborot bu — moliyaviy hisobot hisoblanadi. Shunday masalalarni hal etishda muallif tomonidan tanlangan tadqiqot mavzusi bo'lgan "Moliyaviy hisobotda ma'lumotlarni taqdim etish va yoritib berish" dolzarb hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy hisobotda ma'lumotlarni taqdim etish va yoritib berish mavzusi doirasida milliy tizim bo'yicha asosiy adabiyot va normativ-huquqiy hujjat O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son¹ qarori doirasida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2022-yil 10-noyabrda "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida"gi 61-son buyrug'iga asosan o'zbek tiliga tarjima qilingan MHXS va BHXSlar bo'lib hisoblanadi [3].

"Moliyaviy hisobotni taqdim etish" nomli 1-son BHXSGa muvofiq: "Moliyaviy hisobot tashkilot moliyaviy holati va moliyaviy natijalarining tartibga solingan ifodasidir. Moliyaviy hisobotning maqsadi turli foydalanuvchilar uchun iqtisodiy qarorlar qabul qilishda foydali bo'ladigan tashkilotning moliyaviy holati, moliyaviy natijalari va pul mablag'lari harakati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlashdan iboratdir. Moliyaviy hisobot, shuningdek, tashkilot rahbariyati tomonidan unga ishonib topshirilgan resurslar boshqarilishining natijalarini ham aks ettiradi", deb ta'kidlanadi [4].

Iqtisodchi olim R. Dushmanov fikriga ko'ra: "Buxgalterlik (moliyaviy) hisoboti hisobot davri uchun korxona faoliyatining natijalari, tegishli tarzda tasdiqlangan shakllarda taqdim etiladigan, o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar to'plami", deb ta'riflaydi [5].

Yana bir iqtisodchi olim S. N. Tashnazarov: "Moliyaviy hisobot — bu moliyaviy buxgalteriya hisobining maqsadi, funksiyalari va vazifalarini amalga oshirish vositasi bo'lib, uning yordamida korxonaning o'tgan davri uchun moliyaviy holati, uning moliyaviy-iqtisodiy faoliyati natijalari, pul mablag'lari va xususiy kapitali o'zgarishiga doir ishonchli axborotlarni o'zida mujassamlashtirgan hamda axborot foydalanuvchilarga qarorlar qabul qilish va nazorat uchun axborotga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashga qaratilgan tizimdir", deb fikr yuritadi [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishini tashkil qilish va bajarish jarayonida buxgalteriya hisobi usullari asosida ekspertlar bahosi, qiyosiy tahlil, kontent va event tahlili, tizimli va omilli tahlil kabi usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 8-oktyabrda "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 181-son² buyrug'i 1-ilovasi bo'lgan "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risida"gi Nizomda belgilangan tartib-qoidalarga muvofiq moliyaviy hisobotning to'liq to'plami quyidagilar bo'lib hisoblanadi [7]:

- moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot;
- foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot;
- xususiy kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot;
- pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot;
- ahamiyatli hisob siyosati va boshqa tushuntirish ma'lumotlaridan iborat izohlar (moliyaviy hisobotga izohlar).


Shuningdek, ushbu moliyaviy hisobotning to'liq to'plami 1-son BHXSDa ham keltirib o'tilgan.

1 <https://lex.uz/docs/-4746047>

2 <https://lex.uz/uz/docs/-7194594>



E'tibor qaratish lozimki, moliyaviy hisobotning to'liq to'plamida boshqa tushuntirish ma'lumotlaridan iborat izohlar, ya'ni moliyaviy hisobotga izohlar alohida ko'rsatilgan. Moliyaviy hisobotga qo'shimcha izohlarni taqdim etish natijasida moliyaviy hisobotning ishonchlilik darajasi ortadi, moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar uchun taqdim etilayotgan ma'lumotlardan foydalanishda yanada aniqlikka erishiladi (1-rasm).



1-rasm. Moliyaviy hisobotni taqdim etish va yoritib berish³

Moliyaviy hisobotda ma'lumotlarni taqdim etish va yoritib berishni takomillashtirish mavzusi doirasida tadqiqot o'tkazishda 2024-yilda Xalqaro Moliyaviy Hisobot Standartlari Kengashi tomonidan chiqarilgan 18-son MHXS "Moliyaviy hisobotda ma'lumotlarni taqdim etish va yoritib berish" (IFRS 18 *Presentation and Disclosure in Financial Statements*) nomli standartni chuqur tahlil qilish, mazmun va mohiyatini o'rganib chiqish maqsadga muvofiq.

Ushbu 18-son MHXSni xo'jalik yurituvchi subyektlarda 2027-yil 1-yanvardan qo'llash majburiy etib belgilangan, lekin subyekt uni ixtiyoriy ravishda ham qo'llashi mumkinligi e'tirof etilgan. Standart moliyaviy hisobotdagi ma'lumotlarni taqdim etish va yoritib berish bo'yicha umumiy talablarni belgilaydi.

18-son MHXSning joriy etilishi natijasida xalqaro buxgalteriya hisobi tizimida moliyaviy axborotlarning shaffofligi va taqqoslanuvchanligi ortishi ta'minlanadi hamda xo'jalik yurituvchi subyekt kamida yillik davr uchun to'liq moliyaviy hisobotlar to'plamini taqdim etishi va oldingi davr ko'rsatkichlarini asosiy hisobotlar hamda izohlarda aks ettirishi majburiy etib belgilangan.

18-son "Moliyaviy hisobotda ma'lumotlarni taqdim etish va yoritib berish" MHXSni joriy etish quyidagi asosiy xususiyatlar bilan belgilanadi:

- moliyaviy hisobot to'plamlari bilan birga izohlarni ham taqdim etish majburiyatining joriy etilishi hamda taqqoslama ko'rsatkichlarning barcha bo'limlarda ko'rsatilishi;
- foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromadlar to'g'risidagi hisobotning yangi tuzilishi;
- moliyaviy hisobotda menejment tomonidan belgilangan samaradorlik ko'rsatkichlarining oshkor qilinishi;
- moliyaviy hisobotda axborotlarni agregatsiya va dezagregatsiya qilish tamoyillari.

Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromadlar to'g'risidagi hisobotning yangi tuzilishi 5 ta qismdan



iborat bo'ladi: 1) operatsion; 2) investitsiya; 3) moliyaviy; 4) foyda solig'i; 5) tugatilgan faoliyat bo'yicha.

Operatsion faoliyat xo'jalik yurituvchi subyektning asosiy daromad manbaini hosil qiluvchi faoliyat bo'lib, u xo'jalik yurituvchi subyektning kundalik ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va tovar sotish jarayonlarini qamrab oladi. Ya'ni, asosiy faoliyat bo'lib, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdan olingan daromad hamda xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Investitsiya faoliyatida xo'jalik yurituvchi subyektning uzoq muddatli aktivlarga va moliyaviy instrumentlarga kiritilgan mablag'i, ularni sotib olishi yoki sotishi bilan bog'liq faoliyati hisoblanadi. Bunda qo'shimcha daromad yoki kapital qiymatini oshirish maqsad qilinadi.

Moliyaviy faoliyat xo'jalik yurituvchi subyektning kapital tuzilmasiga ta'sir etuvchi va moliyalashtirish manbalarini shakllantiruvchi operatsiyalar yig'indisidir. Bu faoliyat qarz olish, obligatsiyalar chiqarish, dividend to'lash kabi jarayonlarni qamrab oladi.

Foyda solig'i — bu xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy natijasi asosida davlat budjetiga to'lanadigan majburiy to'lov bo'lib, sof foydaga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etadi. Ushbu bo'lim foyda yoki zarar hisobotida operatsion va moliyaviy natijalardan keyin alohida satrda ko'rsatiladi.

Tugatilgan faoliyat — bu xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan sotilgan yoki yaqin kelajakda tugatilishi rejalashtirilgan faoliyat segmenti bo'lib, u kelajakda daromad yoki xarajat keltirmaydi. Bu bo'lim foyda yoki zarar hisobotida alohida qism sifatida yoritiladi, chunki endi u korxonaning kelajakdagi faoliyati natijalariga ta'sir qilmaydi (1-jadval).

1-jadval

Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromadlar to'g'risidagi hisobot shakli ⁴			18-MHXS ga muvofiq tuziladigan shakl		
Amaldagi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan shakl					
Ko'rsatkichlar nomi	20__ y.	20__ y.	Ko'rsatkichlar nomi	20__ y.	20__ y.
Tushum			Tushum		
Sotish tannarxi	()	()	Sotish tannarxi	()	()
Yalpi foyda (zarar)			YALPI FOYDA (ZARAR)		
Operatsion faoliyatning boshqa daromadlari			Operatsion faoliyatning boshqa daromadlari		
Sotish xarajatlari	()	()	Sotish xarajatlari	()	()
Ma'muriy xarajatlari	()	()	Ma'muriy xarajatlari	()	()
Aktivlarni qadrsizlanishidan zararlar			Operatsion faoliyatning boshqa xarajatlari	()	()
Operatsion faoliyatning boshqa xarajatlari	()	()	OPERATSION FAOLIYAT FOYDASI (ZARARI)		
Operatsion faoliyat foydasi (zarari)			Divident ko'rinishidagi daromadlar		
Ta'sir ostidagi tashkilotlar va qo'shma korxonalarning foydasining (zararining) tashkilotga tegishli ulushi			Investitsiya ko'chmas mulkdan daromad yoki xarajatlari		
Qarzlarni va moliyaviy ijara bo'yicha foizlar shaklidagi xarajatlari	()	()	Investitsion ko'rinishidagi boshqa daromadlar va xarajatlari		
			MOLIYAVIY FAOLIYAT VA FOYDA SOLIG'I TO'LANGUNCHA FOYDA		
Valyuta kursi farqidan foyda (zarar)			qarzlarni bo'yicha foiz xarajatlari	()	()
Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari			Valyuta kursi farqidan foyda (zarar)		
Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlari	()	()	Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari va xarajatlari		
Foyda solig'i to'langunga qadar foyda yoki zarar			Foyda solig'i to'langunga qadar foyda yoki zarar		
Foyda solig'i, jami shu jumladan:	()	()	foyda solig'i xarajatlari (kechiktirilgan, joriy)	()	()
Joriy foyda solig'i xarajati	()	()	DAVOM ETAYOTGAN FAOLIYATDAN FOYDA (ZARAR)		
Kechiktirilgan soliq xarajati (daromadi)	()	()	Tugatilgan faoliyatdan foyda		
Davom etayotgan faoliyatdan foyda (zarar)			Tugatilgan faoliyatdan foyda		
Tugatilgan faoliyatdan foyda (zarar)			SOF FOYDA		
Hisobot davri uchun sof foyda (zarar)					



Ushbu birinchi jadvaldan ko'rish mumkinki, foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromadlar to'g'risidagi hisobotning O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 8-oktyabrdagi 181-son buyrug'i 1-ilovasi bo'lgan "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risida"gi Nizomda berilgan shakli va yangi 18-son MHXS talabiga muvofiq shaklining asosiy farqli jihatlarini ko'rsatib berilgan.

18-son MHXSning yana bir muhim yangiligi Menejment tomonidan belgilangan samaradorlik ko'rsatkichlari (Management Performance Measures – MPM) joriy etilishidir. MPM — bu xo'jalik yurituvchi subyektning menejeri o'z faoliyati samaradorligini jamoatchilikka ko'rsatish uchun foydalanadigan, ammo Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida rasmiy tarzda belgilab qo'yilmagan daromad yoki xarajatlarning yig'indisidir. Bu xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy natijalarini yanada oson tushuntirish uchun qo'shimcha ko'rsatkich sifatida qo'llaniladi. Shuning uchun ham 18-son MHXS talabiga ko'ra moliyaviy hisobot izohlarida ushbu ma'lumotlar ham taqdim etilishi majburiy qilib qo'yildi.

Menejment tomonidan belgilangan samaradorlik ko'rsatkichlari (MPM)ning foydalanuvchilar uchun ahamiyati shundaki, ular moliyaviy hisobotlardan tashqari ommaviy kommunikatsiyalarda ishlatiladi, investorlarga kompaniyaning umumiy moliyaviy faoliyatining muayyan jihatini menejment nuqtayi nazaridan yetkazish uchun qo'llaniladi va Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida aniq talab qilinmagan bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida aytish mumkinki, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobotida ma'lumotlarni taqdim etish va yoritib berish bugungi kunda iqtisodiyotni boshqarish va investitsiyaviy qarorlarni qabul qilish jarayonida muhim o'rin egallaydi. Moliyaviy hisobotlar nafaqat xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati natijalarini ifodalab qolmasdan, balki ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun ishonchli axborot manbai sifatida ham xizmat qiladi. Shu bois ularning tuzilishi, taqdim etilishi va yoritilishi xalqaro me'yorlarga muvofiq tashkil etilishi zarur, deb o'ylaymiz.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining, jumladan, "Moliyaviy hisobotda ma'lumotlarni taqdim etish va yoritib berish" nomli 18-son MHXSning joriy etilishi moliyaviy axborotlarning shaffofligini oshirish, global darajada faoliyat yurituvchi kompaniyalarning hisobotlarini taqqoslash imkoniyatini yaratadi. Xususan, foyda yoki zarar hisobotida daromad va xarajatlarni to'g'ri guruhlash, yangi qism kategoriyali ko'rsatkichlarni — operatsion, moliyaviy, investitsiyaviy va tugatilgan faoliyatni kiritish, menejment tomonidan belgilangan samaradorlik ko'rsatkichlarini oshkor qilish talab etiladi. Bu esa foydalanuvchilarga kompaniyaning moliyaviy barqarorligi va istiqbolini yanada aniqroq baholash imkonini yaratadi.

Tadqiqot mavzusi doirasida, ya'ni "Moliyaviy hisobotda ma'lumotlarni taqdim etish va yoritib berishni takomillashtirish" bo'yicha quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- moliyaviy hisobot foydalanuvchilarining qaror qabul qilishiga xizmat qiluvchi muhim axborotni taqdim etish maqsadida izoh va ilovalarni agregatsiya va dezagregatsiya tamoyili asosida integratsiyalashgan uslubiy yondashuvni ishlab chiqish;
- moliyaviy hisobotlarning taqqoslanuvchanligi va ishonchligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasida amaldagi Buxgalteriya hisobining milliy standartlarini bosqichma-bosqich MHXS bilan uyg'unlashtirish muhimdir. Bu jarayon korxonalar faoliyatining xalqaro investorlar uchun yanada jozibadorligini oshiradi;
- amaliyotda moliyaviy hisobotlarda "boshqa daromadlar" yoki "boshqa xarajatlar" umumlashtirilgan tarzda berilishi foydalanuvchilar uchun noqulaylik tug'diradi. MHXS 18 talablaridan kelib chiqib, ushbu bo'limdagi summalarni kengroq ochib berish hisobotlarni yanada shaffof qiladi va foydalanuvchilarning tahlil qilishiga yordam beradi;
- moliyaviy hisobotlar bilan birga moliyaviy hisobot izohlarini ham elektron formatda taqdim etish lozim. Buning natijasida bir nechta qulayliklar yaratiladi: tezkorlik, aniqlik, kamroq xato va avtomatik tahlil imkoniyati. Shuningdek, davlat organlari va investorlar uchun ham hisobotlarni oson qabul qilish va tahlil qilish imkoniyati paydo bo'ladi;
- xalqaro standartlarga mos ravishda hisobot yuritish uchun, albatta, yuqori malakali kadrlar zarur. Shu bois buxgalterlar va moliya sohasi xodimlari muntazam ravishda malakasini oshirishi va qayta tayyorlanishi lozim. Bu nafaqat hisobotlarda sifatni ta'minlaydi, balki ularning xalqaro tajribaga moslashuvchanligini ham oshiradi;
- moliyaviy hisobotlar asosan mutaxassislar uchun yozilgan murakkab hujjatlar ko'rinishida bo'ladi. Holbuki, moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan aksiyadorlar, investorlar, hatto keng jamoatchilik ham foydalanadi. Shu sababli moliyaviy hisobot ma'lumotlarini tushunarligini yanada soddaroq til, qo'shimcha izohlar va vizual ko'rinishlarda taqdim etish lozim.

Umuman olganda, moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarni taqdim etish va yoritib berishning ilmiy asoslangan yondashuv asosida amalga oshirilishi xo'jalik yurituvchi subyektlarning samarali boshqaruvini, moliyaviy intizomini va iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashda beqiyos ahamiyat kasb etadi, deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-8050769>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/uz/docs/5841063>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son qarori // URL: <https://lex.uz/ru/docs/4746047>
4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2022-yil 10-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida"gi 61-son buyrug'i (2022-yil 9-dekabrda 3400-son bilan ro'yxatdan o'tgan) // URL: <https://lex.uz/docs/-6312360>
5. R.D. Dusmuratov. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Darslik. — T.: «Yangiyul Polygraph Service» nashriyoti, 2020. — 495 b.
6. S.N. Tashnazarov. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobot: muammo va yechimlar. Monografiya. — T.: "Navro'z" nashriyoti, 2016. — 31–47-b.; Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari to'plami. ACCA. IFRS/IAS, 2019.
7. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 8-oktyabrdagi "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 181-son buyrug'i (2024-yil 4-noyabrda 3567-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan). // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7194594>
8. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 8-oktyabrdagi 181-son buyrug'ining 1-ilovasi. Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risidagi Nizom // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7194594#-7202116>
9. Ergasheva Sh.T., Ilxamov Sh.I., Kozimjonov A., Mannapova R.A. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. Darslik. — T.: TDIU, 2022. — 360 b.
10. Kozimjonov A. "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosi: mazmuni va ahamiyati". AFA, 2024, 4-jild, 10-son, 438–444-b. DOI: 10.55439/AFA/vol4_iss10/747.
11. Ergasheva Sh.T., Ibragimov A.K., Rizayev N.K., Ibragimova I.R. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. — T.: TDIU, 2019. — 227 b.
12. Tashnazarov S.N. va boshqalar. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. — Samarqand: SamISI, 2018. — 421 b.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100